



Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-iyul)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyul oylarida Toshkent shahridagi korxonalar tomonidan 34,2 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 100,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 17,8 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda - 22,2 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 2,6 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 41,7 % ga o'sish kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7,2 trln. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 21,2 % ini tashkil etdi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan neft qazib olish - 13,1 % ga oshgan boʻlsa, sheben qazib olish 6,3 % ga oshgan. Shu bilan birga, tabiiy gaz - 13,4 % ga, gazli kondensat - 42,5 %, hamda graviy qazib olish - 82,9 % ga pasaygan.



| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-iyul | 2020- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|-------------------------|-----------------------|-----------------------|-----------|
| Neft, ming t. | 311,5 | 352,2 | -40,7 |
| Gaz kondensati, ming t. | 769,0 | 441,8 | 327,2 |
| Tabiiy gaz, mln. kub.m. | 23 530,2 | 20 617,6 | 2 912,6 |
| Sheben, t. | 272 704,1 | 289 956,0 | -17 251,9 |
| Graviy, t. | 103 005,0 | 17 613,0 | 85 392,0 |



Ishlab chiqaradigan sanoat


2020-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 24,0 trln. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 70,1 % ini tashkil etdi.





**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 5,8 % ni (2019-yil yanvar-iyul oylarida - 6,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 22,4 % (25,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 29,8 % (29,0 %) va quyi texnologiyalisi - 42,0 % (39,9 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 28,8 % (2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 86,9 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 8,6 % (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 82,5 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 9,6 % (2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 23,8 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 10,9 % (2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,0 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020-yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 728,0 mln. dona tamaki mahsuloti (2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 21,7 % ga o'sgan), 195287,0 ming. dona butilka (37,2 %), 5 100,5 ming litr uzum vinosi (34,9 %), 38654,2 litr pivo mahsulotlari (11,9 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-iyul | 2020-yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|----------------------|----------------------|-----------|
| Oltin gugurt, <i>tonna</i> | 161 805,6 | 155 916,0 | -5 889,6 |
| Karobkalar, gofrali qog'oz yoki kartondan idishlar, <i>tonna</i> | 11 263,7 | 8 780,4 | - 2 483,3 |
| Garmon va antibiotiklardan tashqari dori vositalari, <i>tonna</i> | 16 208,6 | 10 171,6 | -6 037,0 |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, <i>ming t.</i> | 29 073,0 | 50 139,0 | 21 066,0 |
| Sovutgich va muzlatgichlar, <i>dona.</i> | 295 412,0 | 234 189,0 | -61 223,0 |



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash
va havoni konditsiyalash**



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,5 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (7,4 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 41,7 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-iyul | 2020- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|-----------------------|-----------------------|-----------|
| Elektroenergiya, mln.kVt/s | 237,3 | 185,7 | -51,6 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 7 553,5 | 7 958,3 | 404,8 |
| Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, ming so'm. | 226 543,0 | 648 678,0 | 422 135,0 |



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,4 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,3 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish


| Sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-iyul | 2020-yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|--|----------------------|----------------------|-----------|
| Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm | 53683,3 | 41119,7 | -12563,6 |
| Xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy, tonna | 0,2 | 0,2 | 0,01 |
| Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mln. so'm | 94642,9 | 93969,7 | - 673,2 |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo'yicha xizmatlar 4,1 % ga oshdi, hamda Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 0,7 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 23,4 % ga pasayish kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 12,5 trln. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 4,3 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 36,6 % ni tashkil etdi.



2019-yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020-yil yanvar-iyul oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarning ulushi 58,5 % dan 57,0 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 5,8 % (2019-yil yanvar-iyul oylarida 6,2 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to'g'ri kelib, 20,1 % ni, shuningdek, Yashnobod tumani 15,1 % ni, Chilonzor tumani 9,2 % ni, Olmazor tumani 9,1 % ni hamda Mirzo Ulug'bek tumani 8,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida shahar o'sish sur'ati (102,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Bektemir (109,8 %), Yashnobod (108,9 %) , Sirg'ali tumanida (108,6 %) qayd etildi.



Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati (2020-yilning yanvar-iyul oylarida)

| | Mrld. so‘m | Jamiga nisbatan ulushi, % da | 2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da |
|------------------------|-----------------|------------------------------|--|
| Toshkent shahar | 12 498,4 | 100,0 | 104,3 |
| Uchtepa | 662,8 | 5,4 | 102,6 |
| Bektemir | 2 649,3 | 20,1 | 109,8 |
| Yunusobod | 615,5 | 5,0 | 101,8 |
| Mirzo Ulug‘bek | 987,4 | 8,7 | 95,0 |
| Mirobod | 1 082,1 | 8,0 | 113,3 |
| Shayxontohur | 809,9 | 6,9 | 97,9 |
| Olmazor | 1 057,3 | 9,1 | 97,3 |
| Sirg‘ali | 1 006,9 | 7,7 | 108,6 |
| Yakkasaroy | 545,1 | 4,7 | 96,1 |
| Yashnabod | 1 973,4 | 15,1 | 108,9 |
| Chilonzor | 1 108,8 | 9,2 | 100,8 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to‘g‘ri kelib, 41,1 %, shuningdek, Sirg‘ali 11,6 % ni, Yashnobod tumani 8,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘shish sur‘atida eng yuqori ko‘rsatkich Mirzo Ulug‘bek (119,7 %), Mirobod (118,5 %), Chilonzor (113,9 %) tumanlarida qayd etildi.




Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘shish sur‘ati
(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)

| | Mrd. so‘m | Jamiga nisbatan ulushi, % da | 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da |
|------------------------|------------------|-------------------------------------|--|
| Toshkent shahar | 4 657,4 | 100,0 | 110,3 |
| Uchtepa | 341,7 | 7,3 | 112,5 |
| Bektemir | 1 914,3 | 41,1 | 110,6 |
| Yunusobod | 186,2 | 4,0 | 105,5 |
| Mirzo Ulug‘bek | 218,6 | 4,7 | 119,7 |
| Mirobod | 179,5 | 3,9 | 118,5 |
| Shayxontohur | 142,5 | 3,1 | 101,9 |
| Olmazor | 385,3 | 8,3 | 107,4 |
| Sirg‘ali | 541,7 | 11,6 | 114,2 |
| Yakkasaroy | 97,9 | 2,1 | 106,7 |
| Yashnobod | 374,0 | 8,0 | 100,6 |
| Chilonzor | 275,7 | 5,9 | 113,9 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnabod tumaniga to‘g‘ri kelib, 14,5 % ni, shuningdek, Mirobod 12,7 % ni, Chilonzor 11,7 % ni, Bektemir 10,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘shish sur‘atida yuqori ko‘rsatkich Yashnobod (120,0 %), Mirobod (112,3 %), Bektemir (107,8 %), Sirg‘ali (102,3 %) tumanlarida qayd etildi.



Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘shish sur‘ati
(2020-yilning yanvar-iyul oylarida)

| | Mrd. so‘m | Jamiga nisbatan ulushi, % da | 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da |
|------------------------|------------------|-------------------------------------|--|
| Toshkent shahar | 7 119,5 | 100,0 | 101,6 |
| Uchtepa | 321,1 | 4,5 | 93,8 |
| Bektemir | 735,0 | 10,3 | 107,8 |
| Yunusobod | 378,1 | 5,3 | 100,9 |
| Mirzo Ulug‘bek | 768,8 | 10,8 | 89,7 |
| Mirobod | 902,6 | 12,7 | 112,3 |
| Shayxontohur | 609,0 | 8,6 | 97,7 |
| Olmazor | 671,9 | 9,4 | 92,4 |
| Sirg‘ali | 417,8 | 5,9 | 102,3 |
| Yakkasaroy | 447,1 | 6,3 | 94,0 |
| Yashnobod | 1 035,1 | 14,5 | 120,5 |
| Chilonzor | 833,0 | 11,7 | 97,1 |



Toshkent shahar hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

| | 2020- yil yanvar-iyul mlrd. so'm | Fizik hajm indeksi, % da |
|------------------------|---|-------------------------------------|
| Toshkent shahar | 34 194,2 | 100,2 |
| Uchtepa | 1 842,1 | 104,2 |
| Bektemir | 3 176,6 | 102,2 |
| Yunusobod | 2 294,8 | 105,1 |
| Mirzo Ulug'bek | 2 682,9 | 98,4 |
| Mirobod | 3 509,2 | 89,8 |
| Shayxontohur | 2 005,6 | 94,9 |
| Olmazor | 2 363,3 | 101,8 |
| Sirg'ali | 2 698,6 | 105,5 |
| Yakkasaroy | 1 634,9 | 104,8 |
| Yashnobod | 10 036,2 | 104,5 |
| Chilonzor | 1 949,9 | 101,6 |




**Toshkent shahar hududlar kesimida ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**


Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishiga, Mirobod (2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 89,8%), Shayxontohur (94,9 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm

indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, % da



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da




Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Mirobod (113,3 %), Bektemir (109,8 %), Yashnobod (108,9 %) tumanlarida qayd etildi.



Toshkent shahar jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da


Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Yashnabod (shahar sanoat ishlab chiqarish hajmning 29,4 %), Mirobod (10,3 %), Bektemir (9,2 %), Sirg'ali (7,9 %) hamda Mirzo Ulug'bek (7,8 %) tumanlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Yakkasaroy (4,8 %) hamda Uchtepa (5,4 %) tumanlarga to'g'ri kelmoqda.




**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2020-yil yanvar-iyul oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 13,1 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 38,2 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmazor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 77,1 %), Chilonzor tumanida (74,7 %), Sirgʻali tumanida (69,3 %), Uchtepa (55,9 %), Yakkasaroy (55,5 %), Yunusobod (42,5 %) tumanlarida kuzatildi.


Toshkent shahar hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Yashnobod (16,8 %), Mirobod (19,0 %) va Shayxantohur (31,3 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




Respublikada faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2020- yil 1- avgust holatiga koʻra)

Bugungi kunda respublikada 15,1 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2,1 mingtasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 13,8 % i) Olmazor tumaniga, 1,9 mingtasi (12,6 %) Chilonzor tumaniga, 1,8 mingtasi (12,1 %) Uchtepa, 1,6 mingtasi (10,9 %) Yunusobod tumaniga, 1,4 mingtasi (9,0 %) Shayxontohur tumaniga, 1,3 mingtasi (8,7 %) Sirg'ali tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda



Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda




2020 - yil yanvar-iyul oyida shaharda 1 119 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 154 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 13,8 %) Olmazor, 144 tasi (12,9 %) Chilonzor, 116 tasi (10,4 %) Mirzo Ulug'bek, 113 tasi (10,1 %) Uchtepa tumanlarida tashkil etildi.




**Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari
(2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar Olmazor (2 086 ta), Chilonzor (1 902 ta), Uchtepa (1 824 ta), Yunusobod (1 641 ta) hamda Shayxontohur (1 361 ta) tumanlarida qayd etildi.

Toshkent shaharda eng ko'p sanoat korxonalar bo'lgan tumanlar
(1 iyul 2020 yil holatiga)



Toshkent shaharda eng kam sanoat korxonalar bo'lgan tumanlar
(1 iyul 2020 yil holatiga)



2020-yilning 1-avgust holatiga ko'ra Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar esa Bektemir (506 ta), Mirobod (858 ta), Yakkasaroy (1 168 ta), Yashnobod (1 196 ta), Mirzo Ulug'bek (1 248 ta) tumanlarida qayd etildi.

**Sanoat statistikasi
bo'limi**

Tel.: (71) 230-88-16